


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023- YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA’LUMOT)**





**Tel.: 71-202-80-47
www.stat.uz**

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 69,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 11,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,2 %) Farg'ona viloyatiga, 7,3 mingtasi (10,5 %) Toshkent viloyatiga, 6,2 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9 %) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi






Faoliyat yuritayotgan (blue bar) yangi tashkil etilgan (white circle)

O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 655,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (95 361,7 ming so'm), Toshkent shahrida (41 228,9 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (34 990,5 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (18 011,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 553,3 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,9 %), Toshkent viloyati (16,1 %), Navoiy viloyati (15,5 %), Andijon viloyati (11,2 %) hamda Farg'ona viloyati (5,6 %) hissasiga tog'ri keldi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (107,4 %), Andijon viloyatida (107,3 %) hamda Namangan (107,2 %) viloyatlarida kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 trln. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 8,4 % ga toʻgʻri keldi.



Yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	5 356,2	6 188,1	831,9
Neft, ming t.	787,8	770,1	- 17,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m	51 678,4	46 710,3	- 4 968,1
Gaz kondensati, ming t.	1 286,9	1 197,9	- 89,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,8 % (23,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 37,5 % (36,8 %), quyi texnologiyali 36,3 % (38,0 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,8 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 1 333,1 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan), 553,5 ming tonna kalava ip (5,5 % kamaygan), 263,0 mln. litr pivo mahsulotlari (21,0 % ga ko'paygan) hamda 1 128,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	314 357	395 828	81 471
Yuk avtomobillari, dona	4 103	3 541	- 562
Avtomobil dvigatellari, dona	225 437	269 247	43 810
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	1 737,3	1 128,0	- 609,3
Paxta tolasi, ming t.	688,5	697,6	9,1

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Yuk avtomobillari – barcha turdagi yuklarni tashish uchun mo'ljallangan dizel yoki boshqa turdagi yoqilg'i yordamida harakatlanuvchi transport vositasi.


Respublikada 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 3 541 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 13,7 % ga kamayish kuzatildi.



Avtobus ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Avtobus – 9 va undan ortiq o'rinni yo'lovchilar tashiydigan texnik jihatdan mexanik motorli transport vositasi.

Respublikada 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 921 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,1 % ga kamayishi kuzatildi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

O‘zbekiston Respublikasida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 118 093 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga oshdi), 9 829 dona “Chery” (23,3 martaga oshdi), 15 036 dona “KIA” (2,5 martaga oshdi), 82 133 dona “Gentra” (5,7 % ga kamaydi), 546 dona “Spark” (96,2 % ga kamaydi), 89 154 dona “Damas” (23,4 % ga oshdi), 25 586 dona maxsus yengil avtomobillar (22,2 % ga oshdi), shuningdek, 48 082 dona “Tracker” (5,3 martaga oshdi) va 30 596 dona “Onix”, 91 dona “Exeed”, 134 dona “Haval” avtomobillari ishlab chiqarildi.



“Cobalt”

2023-y.

118 093 dona

2022-y.

101 617 dona

2021-y.

71 082 dona



“Gentra”

2023-y.

82 133 dona

2022-y.

87 105 dona

2021-y.

51 061 dona



“Damas”

2023-y.

89 154 dona

2022-y.

72 235 dona

2021-y.

55 068 dona



“Chery”

2023-y.

9 829 dona

2022-y.

421 dona



Maxsus yengil avtomobillar

2023-y.

25 586 dona

2022-y.

20 941 dona

2021-y.

17 308 dona



“Tracker”

2023-y.

48 082 dona

2022-y.

9 088 dona



“Onix”


2023-y.

30 596 dona

Yengil avtomobillar uchun pnevmatik rezina shinalar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Avtomobillar uchun shina – avtomobil, traktor va boshqa mashinalarning g'ildiragi gardishiga kiygiziladigan rezina yoki rezina to'qimali pnevmatik qobiq; g'ildirakning yo'l bilan tishlashishini ta'minlaydi, notekis yo'llardagi turtki va zarbalarni yumshatadi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 741,6 ming dona yengil avtomobillar uchun shinalar ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ga kamaygan.



Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Avtomobil dvigateli – avtomobilni harakatga keltiruvchi asosiy qurilma bo'lib, 2,3,4 va undan ortiq silindrli bo'lishi mumkin.

Respublikaning mashinasozlik sanoatida yirik korxonalar tomonidan 269,2 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,4 % ga oshgan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Akkumulyator ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Akkumulyator – keyinchalik foydalanish maqsadida energiyani to‘plash va saqlash uchun mo‘ljallangan qurilma.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida mashinasozlik sanoatida, jami yirik korxonalar tomonidan 1 136,6 ming dona akkumulyatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga ko‘paygan.



Sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Sovutgich – issiqlik izolyatsiya qilingan xonada past haroratni saqlaydigan qurilma. **Muzlatgich bu** – alohida jihoz yoki muzlatgichning ajralmas qismi, muzlatish va saqlash uchun mo‘ljallangan.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 595,6 ming dona sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,0 % ga kamaygan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra


Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida, t.	15 697,0	16 238,1	541,1
Portlandsement, ming t.	11 517,8	11 931,3	413,5
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	11 269,5	12 753,3	1 483,8
Dizel yoqilg'isi, ming t.	800,1	1 012,5	212,4
Avtomobil benzini, ming t.	1 257,7	1 333,1	75,4

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, dinatriy karbonati ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,2 %) hamda kaliy xlorid ishlab chiqarish 100,6 % ni tashkil etdi.

Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,8 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga o‘ydi va ishlab chiqarish hajmi 126 302,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,3 % ga o‘ydi va ishlab chiqarish hajmi 27 965,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 65 174,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17 968,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 71 121,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 22 478,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 34 521,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan kreking va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 127,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 25 027,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 108,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 10 895,4 mlrd. so'm kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi 3,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,8 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 18 445,0 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarning uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko‘rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13 910,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,9 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 77 050,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 104,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt.s	73 741,8	76 931,2	3 189,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26 509,6	24 367,1	- 2 142,5
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m	93 708,0	77 358,0	- 16 350,0

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,0 trln.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd. so'mda FHI, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari 21,3 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 7,0 % ga ko'paydi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 18,3 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	376,9	403,3	26,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	517,0	422,2	- 94,8
To'qimachilik chiqindilari, t	16 231,6	19 691,5	3 459,9

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 189,0 trln.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,3 %, uning jami sanoatdagi ulushi 28,8 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 70,7 trillion so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2022- yilning shu davriga nisbatan respublika bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Jizzax viloyati (187,2 %), Sirdaryo viloyati (109,2 %), Andijon viloyati (108,7 %) korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 37,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 62,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 42,4 %*, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 57,6 %* ni tashkil etdi.

* 2023- yil hisoblash metodikasi bo'yicha


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.



Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 27,3 %, shuningdek, Toshkent shahri 20,8 %, Toshkent viloyati 11,9 %, Xorazm viloyatida 6,9 % ekanligi kuzatildi.



mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 190,8 ming so'm bo'lgani holda, Andijon viloyatida – 15 335,8 ming so'mni, Toshkent shahrida – 13 140,4 ming so'mni, Jizzax viloyatida – 7 222,8 ming so'mni va Toshkent viloyatida – 7 411,3 ming so'mni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 41,6 %, shuningdek, Toshkent shahri 13,7 % ni, Toshkent viloyati 8,7 % ni, Jizzax viloyati 8,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd.so'mda



Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi

62,6 %




Jizzax	2,3 m.	9 829,6
Qoraqalpog'iston Resp.	126,3	456,1
Namangan	113,5	5 720,0
Surxondaryo	112,9	1 764,6
Andijon	109,9	49 190,7
Qashqadaryo	109,2	1 928,5
Xorazm	108,9	7 785,6
Toshkent	107,0	10 267,0
Sirdaryo	106,7	699,8
Buxoro	106,1	2 773,6
Farg'ona	104,4	4 989,5
Toshkent sh.	103,6	16 158,7
Navoiy	100,9	1 658,4
Samarqand	98,7	5 070,0

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 32,9 % ni, Toshkent viloyatiga 17,2 % va Samarqand viloyatiga 7,6 % ekanligi kuzatildi.



Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi




Hudud	Hajmi (mlrd.so'mda)	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo	117,6	117,6
2 344,4		2 344,4
Navoiy	110,0	110,0
2 154,0		2 154,0
Toshkent sh.	109,9	109,9
23 243,8		23 243,8
Samarqand	103,6	103,6
5 345,7		5 345,7
Buxoro	102,6	102,6
3 278,4		3 278,4
Farg'ona	102,4	102,4
4 287,5		4 287,5
Xorazm	101,3	101,3
5 330,1		5 330,1
Qashqadaryo	100,6	100,6
2 872,0		2 872,0
Qoraqalpog'iston Resp.	99,2	99,2
2 349,2		2 349,2
Namangan	98,5	98,5
3 191,7		3 191,7
Andijon	96,7	96,7
2 315,4		2 315,4
Toshkent	95,0	95,0
12 134,4		12 134,4
Jizzax	79,2	79,2
942,8		942,8
Surxondaryo	73,7	73,7
928,0		928,0



● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 176,5 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,0 % ni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Fargʻona	49,2	18 054,2
Surxondaryo	47,3	4 137,3
Namangan	47,2	9 831,0
Samarqand	44,6	14 561,2
Toshkent sh.	37,8	46 771,8
Sirdaryo	31,3	4 753,5
Buxoro	30,2	9 563,2
Qoraqalpogʻiston Resp.	28,3	5 330,3
Jizzax	24,4	4 628,6
Toshkent	23,7	25 110,2
Qashqadaryo	22,4	6 331,2
Andijon	22,0	16 211,5
Xorazm	16,3	3 445,2
Navoiy	7,7	7 795,0

● mlrd. soʻmda ■ Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 2 003 ta loyiha bo'yicha 82,8 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 674,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 11 533 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

